



UDK: 159.9(575.1) UDK: 159.9(575.1)

Noryigit DUSANOV,
CHDPU mustaqil tadqiqotchisi, dotsent
E-mail:dusanov_NE@gmail.com

DSc, professor T.Burxonov taqrizi bilan

“Z” AVLOD VAKILLARINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK PORTRETI

Annotatsiya

Avlodlarni tasniflash masalasi zamonaviy jamiyatda dolzarb hisoblanadi, chunki insonning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muhit bilan o‘zaro munosabati avlodlarga xos xususiyatlar asosida shakllanadi. Har bir avlodning ijtimoiy tarkibi, psixologik xususiyatlari va qadriyatlariga munosabati muayyan tarixiy va madaniy sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi. Bu xususiyatlarni chuqurroq o‘rganish avlodlarning ehtiyojlari va rivojlanish tendensiyalarini aniqlash uchun zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: “Z” avlod, vatanparvarlik, boshqaruv psixologiyasi, inson omili.

“SOCIO-PSYCHOLOGICAL PORTRAIT OF REPRESENTATIVES OF GENERATION Z”

Annotation

The issue of classifying generations is considered relevant in modern society, since a person’s interaction with the social, economic, and cultural environment is shaped on the basis of generation-specific characteristics. The social composition, psychological traits, and attitudes toward values of each generation depend on particular historical and cultural conditions. A deeper study of these features creates a foundation for identifying the needs and development trends of generations.

Key words: Generation Z, patriotism, management psychology, human factor.

«СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ПОРТРЕТ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ПОКОЛЕНИЯ Z»

Аннотация

Вопрос классификации поколений считается актуальным в современном обществе, поскольку взаимодействие человека с социальной, экономической и культурной средой формируется на основе характеристик, присущих определённым поколениям. Социальный состав, психологические особенности и отношение к ценностям каждого поколения зависят от конкретных исторических и культурных условий. Более глубокое изучение этих особенностей создаёт основу для определения потребностей и тенденций развития поколений.

Ключевые слова: Поколение Z, патриотизм, психология управления, человеческий фактор.

Kirish. Har bir avlod o‘z davridagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta’sirida shakllanadi. Jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti, siyosiy jarayonlar va madaniy muhit avlodlarning dunyoqarashi va qadriyatlariga ta’sir qiladi. Bu jarayonlarni chuqurroq o‘rganish yosh avlodning ijtimoiy aloqalardagi o‘rnini aniqlash, ularning jamiyatga qo‘shgan hissasini baholash hamda kelajakka mos ta’lim va tarbiya strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhimdir. Avlodlarni tasniflash orqali quyidagi savollarga javob topish mumkin: Har bir avlodning asosiy ijtimoiy va ma’naviy xususiyatlari qanday? Ular qanday sharoitda shakllanadi va qaysi omillar ularning qadriyatlariga ta’sir qiladi? Ularning ehtiyojlari va qiziqishlari qanday o‘zgarishlarga duch keladi?

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda kompleks yondashuv asosida nazariy va empirik metodlar qo‘llanildi. Nazariy bosqichda ilmiy adabiyotlar, psixologik va pedagogik tadqiqotlar, sotsiologik manbalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Empirik bosqichda esa so‘rovnomalar, test, kuzatuv va yarim strukturaviy intervyu metodlari orqali “Z” avlod vakillarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hamda vatanparvarlik qadriyatlariga munosabati o‘rganildi. Olingan ma’lumotlar qiyosiy tahlil, statistik umumlashtirish va interpretativ sharhlash usullari yordamida qayta ishlanib, natijalar asosida xulosalar chiqarildi.

Adabiyotlar tahlili. Vilyam Shtraus va Neyl Xouvlarning “Generations: The History of America’s Future, 1584 to 2069” asarida avlodlarning davriyligini aniqlash va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash borasida asosiy nazariyalar ishlab chiqilgan. Ularning nazariyasiga ko‘ra, har

bir avlod muayyan tarixiy voqealar va ijtimoiy jarayonlar ta’sirida shakllanadi. Ular avlodlarning psixologik xususiyatlari va ijtimoiy moslashuv qobiliyatini tahlil qilishgan. Don Tapkott “Growing Up Digital: The Rise of the Net Generation” asarida internet va raqamli texnologiyalar muhitida o‘sgan avlodlarning ijtimoiy va shaxsiy xususiyatlari tadqiq qilingan. Tapkott Z avlodning raqamli muhitdagi faoliyati va ularning texnologiyalarga moyilligiga alohida e’tibor qaratgan. Jan Tvenge “iGen: Why Today’s Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy” asarida iGen yoki Z avlodning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari, ularning globallashuv va raqamli texnologiyalar ta’sirida shakllanish jarayoni o‘rganilgan. Manfred Kets de Vries liderlik va avlodlar psixologiyasi sohasidagi tadqiqotlarida, avlodlar o‘rtasidagi madaniy farqlar va ularning rahbarlikdagi rolini chuqurroq o‘rgangan.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy texnologiyalar va axborot muhiti avlodlarning ijtimoiy aloqalariga, fikrlash tarziga va turmush tarziga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli texnologiyalar axborotga kirish imkoniyatlarini kengaytirsa-da, ularning ijtimoiy muomala, bilim olish jarayoni va shaxsiy rivojlanishga ta’sirini tushunish dolzarb hisoblanadi. Masalan, “Z” avlod raqamli muhitda o‘sgan ilk avlod bo‘lib, ular uchun axborotga tezkor kirish va virtual aloqalar asosiy xususiyatlardan biridir. Ushbu o‘zgarishlar ta’lim jarayonini transformatsiya qilish, milliy qadriyatlarni yangi texnologiyalar orqali yuqorilash va yoshlarda ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish zaruratini yuzga keltiradi. Avlodlar tasnifining ilmiy va amaliy ahamiyati quyidagilarda

namoyon bo'ladi. Avlodlarni tasniflash nafaqat ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish, balki ularga mos tarbiya va ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy ahamiyat: avlodlar psixologiyasini o'rganish orqali shaxsning rivojlanish jarayonini chuqurroq tushunish; jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarning avlodlarga ta'sirini baholash. Amaliy ahamiyat: yoshlarga mos keluvchi tarbiya uslublari va ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish; milliy va umuminsoniy qadriyatlarini zamonaviy avlodga yetkazish mexanizmlarini takomillashtirish.

Umuman, avlodlarni tasniflash zamonaviy jamiyatning ijtimoiy jarayonlarini chuqurroq tushunish uchun muhim vositadir. Bu jarayon orqali yoshlar ongidagi o'zgarishlarni aniqlash, ularning ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlariga mos yondashuvlarni ishlab chiqish mumkin. Shuningdek, avlodlarni o'rganish yoshlarning jamiyatdagi roli va o'rini belgilash, ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Avlodlarni tasniflashning ahamiyatini aniqlash tadqiqotimiz mantig'iga mos keladi. Shu nuqtayi nazardan, avlodlarni tasniflash jamiyat rivojlanish jarayonini chuqurroq tushunish va turli ijtimoiy guruhlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Har bir avlod muayyan tarixiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik muhit ta'sirida shakllanadi. Bu jarayon ularning ijtimoiy, psixologik va ma'naviy jihatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Avlodlarni tushunish orqali jamiyatning umumiy rivojlanish yo'nalishi, avlodlar o'rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy tartib-qoidalar yaqqolroq aks etadi. Avlodlarni tasniflash bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Avlodlarni tasniflash ilmiy yo'nalish sifatida XX asrda shakllangan va turli tadqiqotchilar tomonidan rivojlantirilgan. Bu masalada quyidagi tadqiqotchilarning ishlari muhim o'rin tutadi.

Bir avlod ikkinchi avloddan muayyan ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga ko'ra farq qiladi. Bu farqlanish ular yashayotgan davrning ijtimoiy-siyosiy, ruhiy-intellektual, texnik-texnologik jarayonlarning fundamental jihatlariga bog'liq. Avlodlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni quyida ko'rib chiqamiz.

Tarixiy va siyosiy omillar. Har bir avlod muayyan tarixiy voqealar, siyosiy o'zgarishlar va jamiyatdagi global jarayonlar ta'sirida shakllanadi. Masalan, X avlodning barqarorlik muhitida, Y avlodning innovatsiya va global integratsiya jarayonlarida, Z avlodning esa raqamli texnologiyalar muhitida rivojlangani shunga yaqqol misol. Iqtisodiy omillar. Avlodlarning qadriyatlariga ular o'sgan iqtisodiy sharoit katta ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy barqarorlik, ish o'rinlari va iqtisodiy imkoniyatlar har bir avlodning dunyoqarashiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan sanaladi. Texnologik taraqqiyot omili. Texnologiya har bir avlodning ijtimoiy muloqot tarzi, axborotga munosabati va dunyoqarashida muhim rol o'ynaydi. Masalan, Z avlod raqamli muhitda tug'ilgan ilk avlod bo'lib, internet va ijtimoiy tarmoqlar ular hayotining ajralmas qismiga aylangan. Madaniy va ma'naviy muhit omili. Madaniyat va an'analar har bir avlodning ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarini belgilaydi. Milliy qadriyatlar yoshlarning shaxsiy ongi va jamiyatdagi rolga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Umuman, avlodlarni tasniflash – bu jamiyat rivojlanishining muhim mexanizmlarini tushunish va avlodlar o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni yaxshilashda zarur vositadir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har bir avlod o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular muayyan iqtisodiy, madaniy va texnologik muhitda shakllanadi. Avlodlarni chuqurroq o'rganish orqali zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish,

yoshlarning jamiyatdagi o'rini belgilash va ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash mumkin. Tadqiqotimizda turli avlod vakillarining asosiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashirishga harakat qildik. Uni quyida ko'rib chiqamiz.

X avlod (1965–1980-yillar). Asosiy xususiyatlari: Tinchlik va barqarorlik muhitida o'sgan. Bu avlod Ikkinchi jahon urushi tugaganidan keyingi barqarorlik davrida voyaga yuqotgan. Ular barqaror iqtisodiy o'sish va jamiyatdagi nisbatan tinchlik muhitida rivojlangan. O'qimishlilikka va bilimga katta urg'u berishgan. Ta'lim ular uchun shaxsiy va kasbiy rivojlanishning asosiy vositasi bo'lgan. Ularning ilm-ma'rifatga bo'lgan e'tiqodi boshqa avlod vakillariga namuna bo'la oladi. Tartiblilik va mustaqillikni qadrlashadi. Ular o'z harakatlariga mas'uliyat bilan yondashadi va mustaqil qaror qabul qilishni afzal ko'radi. Ma'naviy jihatlar: An'anaviy qadriyatlarga e'tibor qaratadi: Ular oila, mehnat va an'analariga hurmat bilan qaraydi. Jamiyatdagi o'z o'rini mustaqil harakatlar orqali belgilashga intiladi: Bu avlod shaxsiy tashabbus va mehnat orqali muvaffaqiyatga erishishga ishonadi.

Y avlod (1981–1996-yillar). Asosiy xususiyatlar: Jadallik va innovatsiya muhitida o'sgan. Bu avlod axborot texnologiyalari taraqqiyotining birinchi bosqichida ijtimoiylashgan. Ular uchun kompyuter va mobil aloqa odatiy hodisa hisoblanadi. Axborot texnologiyalari rivojlanishi davrida ijtimoiylashgan. Ular axborotni tezkor qabul qilishga moyil bo'lib, internet va texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanishni afzal ko'radi. Jamoada ishlashga moyil va ijtimoiy tarmoqlarga tayanadi. Jamoada ishlash ular uchun muvaffaqiyatga erishishning samarali usuli hisoblanadi. Ma'naviy jihatlar: O'zini anglash va shaxsiy rivojlanishga ko'proq e'tibor qaratadi: Y avlod shaxsiy rivojlanish, turmush sifati va individualizmga katta ahamiyat beradi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarini uyg'unlashtirishga intiladi: Ular millatlararo hamkorlikka ochiq bo'lib, umuminsoniy qadriyatlarini qabul qiladi.

Z avlod (1997-yildan keyin). Asosiy xususiyatlar: Axborot texnologiyalari ta'sirida o'sgan birinchi avlod. Bu avlod raqamli texnologiyalar muhitida tug'ilgan. Internet, smartfonlar va ijtimoiy tarmoqlar ular hayotining ajralmas qismi hisoblanadi. Raqamli muhitni ijtimoiy va shaxsiy aloqa asosi sifatida ko'radi. Ular ijtimoiy tarmoqlar orqali doimiy muloqot qilib, axborotni tezkor qabul qiladi. Tezkor qarorlar qabul qilishga moyil va multifunksionallik xususiyatiga ega. Zamon talabiga javob beradigan, ko'p vazifani bir vaqtda bajaradigan va innovatsion yechimlarga yo'naltirilgan. Ma'naviy jihatlar: Milliy qadriyatlar va global jarayonlarga qiziquvchan: Ular milliy qadriyatlariga hurmat bilan yondoshsa-da, globallashtirish ta'sirida xalqaro madaniyatni qabul qilishga moyil. Tanqidiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga yo'nalgan: Axborotga boy muhitda o'sgani sababli, tanqidiy tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilishda yuqori qobiliyatga ega.

Xulosa. X, Y va Z avlodlarning har biri o'ziga xos ijtimoiy va ma'naviy xususiyatlarga ega bo'lib, ular o'z davridagi ijtimoiy va texnologik sharoitlarga moslashgan. Bu tasnif har bir avlodning rivojlanish jarayonini yaxshiroq tushunish, ularga mos ta'lim va tarbiya strategiyalarini ishlab chiqish uchun zamin yaratadi. Avlodlar o'rtasidagi farqlar ularning jamiyatdagi o'rini va kelajakdagi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ularning ijtimoiy va shaxsiy xususiyatlarini tushunish jamiyat rivojlanishi uchun zarurdir. Ular uchun axborot muhitida kamolga yetgan shaxslar sifatida yangi tarbiya va ta'lim metodlarini qo'llash muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. Kets de Vries, Manfred F.R. The Leader on the Couch: A Clinical Approach to Changing People and Organizations. London: Wiley, 2006.

2. Strauss, W., & Howe, N. Generations: The History of America's Future, 1584 to 2069. Harper Perennial, 1991, p. 299.
3. Strauss, William, and Neil Howe. Generations: The History of America's Future, 1584 to 2069. New York: Harper Perennial, 1991.
4. Tapscott, D. Growing Up Digital: The Rise of the Net Generation. McGraw-Hill, 1998, p. 57.
5. Tapscott, Don. Growing Up Digital: The Rise of the Net Generation. New York: McGraw-Hill, 1998.
6. Twenge, J.M. iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy. Atria Books, 2017, p. 34.
7. Twenge, Jean M. iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy – and Completely Unprepared for Adulthood. New York: Atria Books, 2017.
8. Лусенко Л.И. Социально-психологические аспекты управления образовательным учреждением // Известия Тульского государственного университета. Гуманитарные науки. 2012. №1-2. С. 313-319.